

XALQARO NORDIK UNIVERSITETI

**«O‘ZBEKISTON — 2030” STRATEGIYASINI
AMALGA OSHIRISH YO‘NALISHLARI VA
ISTIQBOLLARI YOSHLAR NIGOHIDA»
MAVZUSIDAGI RESPUBLIKA ILMIY-
AMALIY KONFERENSIYA**

Toshkent – 2024

Dilshodova D.D. O'quvchilarning aqliy faoliyatini rivojlantirish va bilimlarni o'zlashtirishda interfaol o'qitish usullarning o'rni	96
Rustamov Sh.Sh. Talabalar innovatsion kompetenligini rivojlantirishning ijtimoiy - psixologik asoslari.....	100
Sherqo'ziyeva D.A., Umarova Z.A. Logopedik mashg'ulotlar uchun foydali onlayn platformalar.....	104
Rustamova M.I., Umarova Z.A. Maxsus pedagogika va inklyuziv ta'limda innovatsion ta'lim texnologiyalarining o'rni va ahamiyati.....	106
Umarova Z.A. O'zbekiston – 2030 strategiyasini amalga oshirishda talabalar mustaqil tayyorgarligini rivojlantirish masalasi	109
Abdugafforova N.F. Exploring the role of motivation in english language learning	112
Safarova Z. Case method in teaching pedagogical approach.....	115
Валиева Н.З. Роль женщин в науке как фактор повышения научного потенциала в новом Узбекистане	118
Usmonov M.T. Technology using robotrack IDE Software	121
Marasulova D. N., Tilonboyeva D.Q. Maktabgacha yoshdagi bolalarga chet tillarini o'rgatishning lingvopsixologik xususiyatlari.....	124
Maxmudaliyeva M. M., Shodmonov R.G'. Xalqaro grantlar yutish va ularning ahamiyati.....	128
Rahmatullayeva M., Shodmonov R.G'. BMT tashkiloti va uning dunyo hamjihatidagi ro'li.....	135
Nasrillayeva M.A., Shodmonov R.G'. Topik haqida tushuncha.....	138
Asqarova F., Shodmonov R.G'. Ko'p tillarni o'rganish haqida.....	141
Iskandarova N.Q., Shodmonov R.G'. Bilingualismning afzalliklari: ikki yoki undan ko'p tillarni bilishning insonning kognitiv va kulturologik ko'nikmalari bo'yicha	143
Erkinova R. E., Shodmonov R.G'. Yangi tilni o'rganish metodikasi	146
Shukurova M.Z., Shodmonov R.G'. Yunesko:tashkil topishi va istiqboli.....	148
Omondullayeva D., Shodmonov R.G'. Til o'rganish va turizm.....	152
Norimbatov D.Q., Shodmonov R.G'. IELTS and TOEFL: similarities and differences sides.....	155
Xoliqberdiyeva M.A., Shodmonov R.G'. Nega yoshlarimiz ielts va ceft olishga intilmoqdalar?	160
G'anijonova D. G', Shodmonov R.G'. Hozirgi vaqtda yoshlar nega sat imtihonini topshirib, xorijda o'qishni xohlayabdi?	163

strategies vary, but mastering reading, writing, listening, and speaking skills is essential for success. With the abundance of resources available, including official websites, test preparation books, online courses, practice tests, mobile apps, tutoring services, and study groups, individuals have ample opportunities to prepare effectively for these tests.

Overall, IELTS and TOEFL serve as valuable tools for facilitating international communication, academic pursuits, and professional endeavors in the English-speaking world.

References:

1. British Council. (n.d.). IELTS: Take IELTS. Retrieved from <https://takeielts.britishcouncil.org/>
2. ETS. (n.d.). TOEFL: About the Test. Retrieved from <https://www.ets.org/toefl>
3. British Council. (n.d.). IELTS: What is IELTS? Retrieved from <https://www.britishcouncil.org/tr/en/exam/ielts/what-ielts>
4. ETS. (n.d.). TOEFL: Test Content. Retrieved from <https://www.ets.org/toefl/test-content>

NEGA YOSHLARIMIZ IELTS VA CEFR OLISHGA INTILMOQDALAR?

Xoliqberdiyeva Marjona Akbarovna¹

*¹Xalqaro Nordik universiteti
Xorijiy til va adabiyoti yo'nalishi
1-kurs 1-XT-23 guruh talabasi*

Shodmonov Ruslan G'olib o'g'li²

*²Xalqaro Nordik universiteti doktoranti
r.shodmonov@nordicuniversity.org*

Annotatsiya: ushbu tezisdagi xalqaro sertifikatlar, IELTS, CEFR va TOEFL sertifikatlariga ta'rif beriladi, ularning imkoniyatlari keng yoritiladi hamda bugungi kunda IELTSga talab nega ko'pligi masalasi ochib beriladi. CEFR va IELTS ning o'zaro farqlari, CEFRning afzallik taraflari. IELTSning dunyo miqyosidagi reytingi.

Kalit so'zlar: xalqaro sertifikatlar, IELTS, CEFR, TOEFL, imkoniyat, chet tillar.

Nega so'nggi yillarda ko'plab yoshlar til bilish darajasini aniqlovchi sertifikatlarni olishga intilmoqdalar? IELTS, TOEFL, CEFR va boshqa sertifikatlarning afzalligi va bir-biridan farqi nimada? Nima uchun aynan IELTS ni olishga talabgorlar juda ko'p?

Birinchi bo'lib til bilish darajasini aniqlovchi eng mashhur sertifikatlarning farqi haqida so'z ochsak.

CEFR - ushbu sertifikat uchun hozirgi kunda butun O'zbekistonning har burchagida test bo'lib o'tmoqda. O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidentining

2012 yil 10-dekabrda "Chet tillarini o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi qaroridan keyin ingliz tilini o'rganish va o'rgatishga bo'lgan talab ancha sezilarli darajada ortishi bilan birga, yangi, milliy NSFLA tizimi CEFR asosid tashkil etildi.¹⁵ Avvalgi yillarda topshirgan yurtdoshlarimiz habardor. Ular CEFR standarti bo'yicha imtihon topshiruvchi kerakli darajani tanlab va o'sha daraja bo'yicha imtihon topshirar edilar. Qisqa qilib aytganda, agar B1 o'rta daraja bo'lsa faqat shu darajaga mos keluvchi savollarga javob berilar edi va natija o'tdi yoki o'tmadi degan holda chiqar edi. Endi esa vaziyat o'zgardi buyog'iga imtihon topshiruvchi har hil darajadagi savollarga harakat qiladi va natija qaysi darajaga arziydigan holda bo'lsa yechilsa shu natija olinadigan bo'ldi. Oddiy til bilan aytganda "qozonda bori cho'michga chiqadi". Bu multi-level deyiladi, ya'ni ingliz tilidan tarjima qilinganda "har-xil daraja" degani

TOEFL - Test of English as a Foreign Language (TOEFL, „xorijiy til sifatida ingliz tili testi“) — test topshiruvchining ingliz tilini bilish darajasini aniqlovchi sdantartlashtirilgan test. TOEFL sertifikatini 2 yil haqiqiydir. Ilk marotaba 1964-yilda kiritilgan. O'sha vaqtdan buyon uni 20 milliondan ortiq kishi topshirgan Test 190 dan ortiq mamlakat va hududlardagi 11 000 dan ortiq universitet va boshqa muassasalar tomonidan qabul qilinadi. TOEFL dunyodagi bir nechta asosiy ingliz tili testlaridan biri bo'lib, boshqalari IELTS, Cambridge Assessment English va Trinity College London imtihonlaridir.¹⁶ Odatda universitetlar TOEFL imtihonidan ma'lum bir umumiy ballni so'raydi (overall score), ammo ayrim hollarda universitetlar qaysidir ko'nikmadan olingan ball uchun minimal talabnoma ham qo'yishi mumkin. Bu asosan universitet va tanlangan o'qish dasturiga bog'liq.¹⁷

IELTS - hozirgi kunda, dunyo bo'yicha 140 mamlakatdagi hukumat muassasalari, ta'lim berish maskanlari va ish buyuruvchilar ja'mi 10 000 dan ortiq tashkilot va korxonalar IELTS ga ishonishmoqda.¹⁸ IELTS ha tayyorlanish va imtihondan muvaffaqiyatli o'tish uchun internet saytlarida ham minglab o'quv materiallari, bepul darslar va turli xil imkoniyatlar mavjud. O'zbekistonda ushbu testlarni o'tkazish bo'yicha ma'sul tashkilotlar mavjud. Bular British Council va IDP markazlaridir. IELTS ning kelib chiqish tarixi 1989-yilga borib taqaladi.¹⁹ IELTS dunyoning eng asosiy testi hisoblanadi. IELTS to'rt bo'limga bo'linadi. Listening, reading, speaking va writing. IELTS sertifikatining amal qilish muddati 2 yil va baholash tizmi 1 dan 9 gacha belgilangan. IELTS sertifikatini asosan chet el universitetlariga o'qishga kirish maqsadida topshiriladigan test hisoblanadi. 2,210,000 to'lov qilinadi. IELTS imtihonini topshirgandan so'ng, xalqaro sertifikat beriladi. IELTS sertifikat orqali Toshkentdagi xalqaro Vestministr yoki Inha universitetlaridan, dunyodagi top universitetlargacha hujjat topshirish mumkin. IELTS bilan universitetga hujjat topshiribgina qolmay, universitetga kirsa ham bo'ladi. Bu topshiriladigan universitetga bog'liq, sababi ayrim universitetlar IELTS

¹⁵ <https://kun.uz/uz/news/2019/06/27/nega-yoshlar-ielts-olishga-intilmoqda>

¹⁶ <https://uz.wikipedia.org/wiki/TOEFL>

¹⁷ <https://oliygoh.uz/post/toefl-vs-ielts>

¹⁸ <https://uzinterbiz.com/chet-tili/ingliz-tili/ielitsga-tayyorlanish/.html>

¹⁹ <https://kun.uz/uz/news/2019/06/27/nega-yoshlar-ielts-olishga-intilmoqda>

bilan birga matematika va fizikadan imtihon topshirishni yoki insho yozishni talab qilishlari mumkin.


Nima uchun IELTS sertifikatiga talabgorlar ko'p deb o'ylaysiz? Ko'ryabmiz-ki, dunyoning ko'plab mamlakatlaridagi oliy o'quv yurtlari TOEFL sertifikatini qabul qilmay qo'yshdi. Bilamiz-ki, ingliz tilida gaplashadigan davlatlar va dunyoning boshqa ko'plab mamlakatlaridagi ingliz tilga ixtisoslashgan oliy o'quv yurtlari IELTS sertifikatini talab qiladi. Shuningdek, Kanada, Amerika, Avstraliya, Buyuk Britaniyava Yangi Zelandiya kabi davlatlarga ishga bormoqchi bo'lganlar uchun ushbu testni topshirish kerak bo'ladi. Shu uchun bugun ko'pchilik O'zbekiston yoshlari CEFR, TOEFL kabi imtihonlardan ko'ra, IELTSni afzak hisoblashmoqda.

1-jadval

O'zbekiston mamlakatlararo IELTS sertifikatini olish reytingi ²⁰

No	Mamlakat	Tinglash reyting ball	Tinglash reyting ball	O'qish reyting ball	Yozish reyting ball	Gapirish reyting ball
1.	Ispaniya	7.4	7.4	6.3	6.9	7.1
2.	Malayziya	7.5	7.2	6.4	6.8	7
3.	Brazilya	7	7.2	6.1	6.9	6.9
4.	Italiya	7.2	7.5	6.2	6.7	6.9
5.	Rossiya	7.2	7.2	6.2	6.8	6.9
35.	O'zbekiston	6	5.7	5.6	5.7	5.8

Dunyo bo'ylab o'rtacha IELTS balli 6.3: o'rtacha tinglash 6.5, o'qish 6.3, yozish 5.9 va gapirish 6.3. O'zbek va panjob tilida so'zlashuvchilar ko'proq qiyinchiliklarga duch kelishadi. O'zbeklar uchun o'rtacha ball eng past ko'rsatkich bo'lib, 5,9 band bo'lib, panjob tilida so'zlashuvchilar keyingi o'rinda turadi, o'rtacha 5,8 ball. Ispaniya IELTS bo'yicha eng yuqori ballga ega. Malayziya IELTS bo'yicha ikkinchi eng yuqori davlat bo'lib, o'qishdan tashqari Ispaniyadan ko'ra yaxshiroq ko'rsatkichdir.



2-rasm. CEFRning afzalliklari²¹

²⁰ <https://www.dfavo.com/blog/academic-ielts-2022-data/>

²¹ Muallif ishlanmasi

Xulosa qilib aytganda ushbu sertifikatlar ingliz tilini qay darajada bilishligini aniqlab beradi. Shu qatorda bu sertifikatlar juda ko‘p imkoniyatlarga ega. Faqat sertifikatga ega bo‘lgandan so‘ng uni tog‘ri maqsadda qo‘llash lozim. Sertifikatga ishonib ham qolmaslik lozim. Sertifikat hayotimizni o‘zgartirmaydi, shunchaki maqsadimiz yo‘lida qilayotgan harakatimizga turtki bo‘ladi holos.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Sabirov, K. (2024). Econometric modeling of development trends in the food industry. Nordic_Press, 1(0001).
2. Nusratovich, S. K., & Asidakhan, A. (2023). STRATEGY FOR THE DEVELOPMENT OF FREE ECONOMIC ZONES IN UZBEKISTAN. QO‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 9, 7-10.
3. Nusratovich, S. K., & Khurshidbek, T. (2023). RELATIVE IMPORTANCE OF FACTORS AFFECTING SUSTAINABLE DEVELOPMENT OF SMALL BUSINESS. Science and innovation, 2(Special Issue 14), 788-794
4. <https://www.dfavo.com/blog/academic-ielts-2022-data/>
5. <https://kun.uz/uz/news/2019/06/27/nega-yoshlar-ielts-olishga-intilmoqda>
6. <https://uz.wikipedia.org/wiki/TOEFL>
7. <https://oliygoh.uz/post/toefl-vs-ielts>
8. <https://uzinterbiz.com/chet-tili/ingliz-tili/ielitsga-tayyorlanish/.html>

HOZIRGI VAQTDA YOSHLAR NEGA SAT IMTIHONINI TOPSHIRIB, XORIJDA O‘QISHNI XOHLAYABDI?

G‘anijonova Diyora G‘ayratjonovna¹

*¹Xalqaro Nordik universiteti
Xorijiy til va adabiyoti yo‘nalishi
1-kurs 1-XT-23 guruh talabasi*

Shodmonov Ruslan G‘olib o‘g‘li²

*²Xalqaro Nordik universiteti doktoranti
r.shodmonov@nordicuniversity.org*

Annotatsiya: Ushbu maqolada bugungi kunda eng dolzarb mavzulardan biri bo‘lgan ya‘ni chet tillarining yoshlar orasida ommalashib borishi, bugungi kunga kelib ingliz tilini dunyo bo‘yicha qancha odam bilishi, SAT imtihoni va topshirilish bosqichlari, imtihondan yuqori ball olgan yoshlarda xorijda o‘qish istagi paydo bo‘lishi haqida va SAT imtihoni qanday imkoniyatlarga ega ekanligi to‘g‘risida batafsil yoritib beriladi.

Kalit so‘zlar: Chet tillari, SAT, AQSH, SAT imtihoni, ingliz tili, xorijiy universitetlar, test turlari, College Board, ACT.